

**MAVZU: VOKAL-XOR
MALAKALARI**

Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga
bo'linadi:

1. Darsda qo'shiq kuylash xolati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambl
6. Talaffuz

1. Qo'shiq kuylash xolati, deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turish holati nazarda tutiladi. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri turish, o'tirib kuylaganda parta suyanchig'iga suyanmasdan, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushlab, qo'llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi xolatlardan iboratdir.

2. Ashulachilik nafasi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud:

ko'krak nafasi;

diafragma nafasi;

qorin nafasi.

O`quvchilarning yelkalarini ko'tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa so'zni bo'lib nafas olmaslikni o'rgatib borishi lozim.

Ovoz hosil qilish Ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. To'rt organ — nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o'zaro faoliyatidagi musiqiy oxangga qo'yiladigan ovoz — ashulachilik ovozi deb ataladi. Bolalar bosh rezanatoriga asoslangan faltsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq ataka bilan boshlash lozim, xech qachon qo'shiqni qattik ataka bilan boshlamaslik kerak. Buni o'qituvchi nazorat qilib borishi shart.

Sozlanish. Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o'z ovozini unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish — ma'lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich sinfdagi vokal-xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison erishishdan iboratdir.

Ansambl — fransuzcha soʻz boʻlib, birgalikda degan maʼnoni anglatadi. Musiqada bir necha ijrochilarning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm — usul va dinamik uygʻunligi vokal—xor ansambli deyiladi. Musiqa darslarida oʻquvchilar birgalikda kuylashida ansamblga erishish nihoyatda muhim. Qoshiq kuylashda oʻqituvchining aultakti asosida kuylashni boshlash, oʻqituvchining ovozigiga tayanib birgalikda kuylash va tugatish ustida muntazam ishlash zarur.

Talaffuz-Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlarining faol hamjixatligi, vositasida amalga oshiriladi. Nafasni to'g'ri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o'rgatib borish talab etiladi. Bunda og'iz shaklini, tilni xarakatlariga, o'zgarishiga katta ahamiyat berish kerak, Eng muhimi, bolalarni mashq va qo'shiqlar matnini vokal, uslublarga muvofiq, talaffuz etishga o'rgatib borish lozim.